

# “BARQAROR TARAQQIYOT: ILM-FAN VA BIZNESDA XOTIN-QIZLAR TASHABBUSLARI” IV xalqaro konferensiya

## AXBOROT XATI

BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasiga ko‘ra, 2016-yildan beri 11-fevral kunini “Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar xalqaro kuni” sifatida nishonlab kelinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zR Fanlar akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Abdulla Qodiriy nomidagi Prezident ijod maktabi, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti hamkorligida 10-fevral kuni “**Barqaror taraqqiyot: ilm-fan va biznesda xotin-qizlar tashabbuslari**” IV xalqaro konferensiya tashkil etilmoqda.

*Xalqaro konferensiyaga quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqolalar qabul qilish rejalashtirilgan:*

- **Ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha tashabbuslar** (e-mail: nadira\_xalmurzayeva@tsuos.uz. Tel: +998946965038)

- **Ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha tashabbuslar** (e-mail: gulshoda\_yunusova@tsuos.uz. Tel: +998993909228)

- **Ayollar va yoshlarni biznesga jalb qilishning amaliy strategiyalari** (e-mail: zulayxo\_kadirova@tsuos.uz Tel:+998973443533)

**Muhim eslatma!** Taqdim etilgan maqola va materiallarda ilg‘or mahalliy hamda xorij tajribasi asosida soha mutaxassislariga foydali, amaliyotga joriy etishga oid tavsiyalar bo‘lishi kerak.

**Maqolalar o‘zbek, rus, ingliz tillarida qabul qilinadi.**  
**Xalqaro konferensiyada ishtirok etish uchun quyidagilarga e’tibor qaratilishi lozim:**

Mutaxassislar **2023-yilning 1-fevraliga qadar** tashkiliy qo‘mitaning yo‘nalishlar bo‘yicha mas’ullariga maqola matnini yuborishlari so‘raladi. **Tashkiliy qo‘mita materiallarni texnik tahrir qilish, shuningdek, maqola qabul qilinmaganda va qaytarilmaganda, bu bo‘yicha izoh bermaslik huquqiga ega.**

Har bir maqola turnitin.com tizimi orqali **plagiatga** tekshiriladi.

Maqola ma'qul topilgach, ilmiy texnik bazalarda indekslash, DOI raqam birlashtirish kabi xarajatlarni qoplash maqsadida mualliflar tomonidan **100 ming so'm miqdorda badal puli** to'lanishi nazarda tutilgan.

Tanlab olingan maqolalar "**Xalqaro konferensiya materiallari**" to'plami sifatida nashr etiladi.

**Nashr etilgan maqolalar quyidagi bazalarda indekslanadi:**

- *Google scholar*
- *cyberleninka.ru*
- *Crossref*
- *Archive.org*

To'plamda e'lon qilingan har bir maqolaga **DOI (Crossref)** raqami beriladi.

**Maqolani tayyorlashga qo'yiladigan talablar:**

Maqola hajmi 8-10 bet bo'lishi lozim.

Maqola matni Doc formatida, lotin yozuvida, 1.5 intervalda, o'ng tomondan — 15 mm, chap tomondan — 30 mm, yuqori va pastdan — 20 mm hoshiya qoldirilib, Times New Roman 14 kegel shriftda tayyorlanadi.

Maqola tuzilishi uchun talablar:

- maqola nomi bosh harflar bilan beriladi;
- muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi, ilmiy unvoni, ish joyi, elektron pochta manzili to'liq keltiriladi;
- annotatsiya (maqolaning qisqacha mazmun va maqsadi, 100 ta so'zdan kam bo'lmasligi lozim) **o'zbek, rus, ingliz** tillarida beriladi;
- kalit so'z va iboralar 7-10 so'zdan iborat bo'lishi kerak;
- maqola mazmuni Kirish (Introduction), Asosiy qism (Main part), Natijalar va muhokama (Results and Discussions), Xulosalar (Conclusions), Adabiyotlar (References)dan iborat bo'lishi lozim. Adabiyotlar umumiy maqola oxirida keltiriladi. Havolalar sahifada maqolaning oxiridagi adabiyotlardan kelib chiqilgan holda [masalan, 1, b.23] joylashtirilishi kerak.

**Ma'lumot uchun tel: +998973443533 Kadirova Zulayxo Abduxalimovna**

**E-mail: womeninscienceandbusiness@tsuos.uz**